

O‘ZBEKISTON PREZIDENTI
AQSHGA KELDI

Xabar berilganidek, 17-sentabr kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasi tadbirlarida ishtirok etish uchun Nyu-York shahriga keldi.

Aeroportda oliy martabali mehmonni Nyu-York shahri meri Erik Adams, AQSH — O‘zbekiston savdo palatasi raisi Kerolin Lemm va boshqa rasmiy shaxslar kutib oldi.

Tashrif dasturiga muvofiq, 19-sentabr kuni davlatimiz rahbari Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasi yalpi sessiyasining umumiy mu-nozaralarida nutq so‘zlaydi hamda min-taqaviy va global kun tartibidagi dolzarb

masalalar yuzasidan o‘z nuqtayi-naza-rini bayon qiladi.

Yilning bosh xalqaro siyosiy tadbiri doirasida Markaziy Osiyo mamlakatlari va Amerika Qo‘shma Shtatlari yetakchilari sammiti, xorijiy davlatlar, nufuzli xalqaro tashkilotlar va AQSHning yetakchi kompaniyalari rahbarlari bilan qator ikki tomonlama uchrashuvlar ham bo‘lib o‘tadi.

O‘ZA

BIZ VA DUNYO

O‘ZBEKISTON — BMT:
UMUMIY BARQAROR
RIVOJLANISHNI TA‘MINLASH
YO‘LIDAGI HAMKORLIK

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2023-yil 19-sentabr kuni Nyu-York shahrida bo‘lib o‘tadigan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 78-sessiyasining umumiy muhokamalarida ishtirok etadi.

O‘zbekiston 1992-yil 2-martda yangi suveren, mustaqil davlat sifatida BMTga a‘zo bo‘ldi. Mamlakatimiz ushbu universal xalqaro tashkilotga a‘zo bo‘lganidan buyon tashkilot va uning ixtisoslashgan muassasalari bilan turli sohalarida samarali hamkorlik qilib kelmoqda.

Zamonaviy xavf-xatar va tahdidlarga qarshi kurashish, Afg‘onistonda tinchlikni ta‘minlash va mamlakatni tiklash, ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatmaslik, ekologik muammolarni hal qilish, xususan, Orol dengizi inqirozi oqibatlarini yumshatish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, inson huquqlarini himoya qilish va rag‘batlantirish, turizmni rivojlantirish va boshqalar ko‘p tomonlama hamkorlikning asosiy ustuvor yo‘nalishlari hisoblanadi.

Mutaxassislar fikricha, so‘nggi yillarda O‘zbekiston BMT Bosh Assambleyasi va ixtisoslashgan tashkilotlari ishida faol ishtirok etmoqda. Xususan, O‘zbekiston rahbari BMT Bosh Assambleyasining 72-, 75- va 76-sessiyalarida, shuningdek, BMT Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasining Oliy darajadagi segmentida ma‘ruza qildi.

2017-yil iyun oyida BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrishning O‘zbekistonga tashrifi va Prezident Shavkat Mirziyoyev bilan muzokaralari bo‘lib o‘tgan edi.

▶ Davomi 2-betda

O‘ZBEKISTON | 2030
STRATEGIYASI

XALQ MUALLIFLIGIDAGI HUJJAT

Unda har sohada yangi tendensiyalarni qo‘llash maqsadi bor

Joriy yil 11-sentabr kuni ikkita muhim hujjat — Prezidentimizning “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini 2023-yilda sifatli va o‘z vaqtida amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi.

Mazkur hujjatlar “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi bilan birgalikda 2030.strategy.uz va davlatdasturi.uz hamda Adliya vazirligining regulation.uz platformalariga keng jamoatchilik muhokamasi uchun joylashtirildi.

Loyihalar muhokamasi doirasida 22 million fuqaro SMS-xabarnoma orqali qamrab olinib, qariyb 6 million foydalanuvchi internet va ijtimoiy tarmoqlar



orqali hujjat loyihalari bilan tanishgani, 1 millionga yaqin munosabat bildirilgani aholimizning ijtimoiy-siyosiy jarayonda faolligidan dalolat beradi.

Loyihalarni ishlab chiqishda xorijiy davlatlar, xususan, Germaniya, Fransiya

va Janubiy Koreya kabi yetakchi davlatlarning strategik hujjatlarni tayyorlash borasidagi ijobiy yutuqlari va tajribasi asos sifatida olingan.

▶ Davomi 3-betda

SOG‘LIQNI SAQLASH

ENDI YO‘L YAQIN,
SARF-XARAJAT KAM

103 — hudud va masofa tanlamaydi

Farg‘onada Respublika tez tibbiy yordam markazi viloyat hududiy filiali Call-markazining zamonaviy binosi foydalanishga topshirildi.

Bu yerda chaqiruvlarni qabul qiluvchi xodimlar bilan birga, shifokorlardan iborat maxsus tibbiy maslahat guruhlari faoliyati ham yo‘lga qo‘yildi. Endi tez yordam tuman yoki shahar chegarasiga qarab emas, balki bemorgacha bo‘lgan masofaga ko‘ra xizmat ko‘rsatadi.

▶ Davomi 5-betda



YANGI HAYOT UCHUN, YANGI O‘ZBEKISTON UCHUN!

Gulnoz TOJIBOYEVA:

“O‘ZBEK ADABIYOTINI DUNYO O‘QISIN!”



Bugungi suhbatdoshimiz Gulnoz Tojiboyeva nafaqat tarjimon va yozuvchi, balki yaxshigina suratlar ham chiza oladi. Bolalar va o‘smirlarga mo‘ljallangan 13 ta kitob muallifi va rassomi. YUNESKO qoshidagi Butunjahon Yozuvchilar uyushmasining “Vilyam Shekspir” nomidagi Xalqaro mukofoti sovrindori. “Bolalar va yoshlar uchun eng yaxshi kitob” Respublika tanlovi g‘olibi. Ayni paytda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Bolalar va o‘smirlar adabiyoti kengashi raisi o‘rinbosari lavozimida faoliyat yuritmoqda. Shu bilan birga, “HUMO” Xalqaro ertaklar tanlovining bosh koordinatori. Kutilmaganda “Gugl-tarjimon”lar haqida boshlangan odatdagi bahsimiz bevosita uning faoliyatidagi yorqin sahifalarga ko‘char ekan, shunday zamondoshlarimiz borligidan faxrlandik.

▶ Davomi 6-betda

HUDUDLAR HAYOTI



ORZU-NIYATLARGA MUNOSIB... 4

XORIJDAGI VATANDOSH



ITALIYADA TO‘KILGAN KO‘Z YOSH 5

BUYUKLARIMIZ



BERUNIY DAHOSIGA TA‘ZIM 6



YANGI HAYOT

UCHUN, YANGI O'ZBEKISTON UCHUN!

Gulnoz TOJIBOYEVA: "O'ZBEK ADABIYOTINI DUNYO O'QISIN!"

Boshlanishi 1-betda

Gulnoz, avvalo, yaqindagina Janubiy Koreyada chop etilgan "Samarqand — Sharq marvaridi" nomli kitobingiz bilan chin dildan qutlayman...

"Samarqand — Sharq marvaridi" tarixiy mavzuda va yangicha uslubda yozilgan bo'lib, salkam 3000-yillik tarixga ega ko'hnaga va navqiron Samarqand haqida so'zlaydi...

XV asrning oxirida, qisqa muddat Shaharda hukmonlik qilgan Zahiriddin Bobur Samarqandga quyidagicha ta'rif beradi...

Yana bir koreyalik rassom dugonam Chxve Sun ushbu ma'lumotlarni avval ham boshqa bir manbalardan o'qigan...

Kitobni Janubiy koreyalik o'quvchilar, o'smirlar va yoshlarga moslashtirib, qiziqarli va sodda tilda yozganman...

"Jayxun va Alanga" nomli fantastik erak-qissangizda Markaziy Osiyo mamlakatlarning fojiasiga aylangan muammo — Orol dengizining qurishi haqida so'z boradi...



— 2008-yillarda onarning kompyuterida Orol dengizining bir qancha rasmlariga ko'zim tushib qoldi...

Ancha vaqt Orol dengizi haqida eshitganlarim ta'siridan chiqolmay yurdim. "Qani endi mo'jiza sodir bo'lib...

2022-yili Yoshlar ishlari agentligi tomonidan tashkil etilgan "Bolalar va yoshlar uchun eng yaxshi kitob" tanlovida...



adiblarining 100 ga yaqin asarlarini rus tiliga o'g'irganidan xabarimiz bor...

— Men tarjima sohasiga 10 yoshda kirib kelganman. 4-sinf tugagan, yozgi ta'til boshlangan kunlar edi...

— Bugungi kunda nashr qilinayotgan barcha asarlar ham jajli kitobxonlar uchun qiziqarli bo'lyapti...

— O'zbekistonda davlatga qarashli va xususiy nashriyotlar ko'p. Har yili yuzlab...

nomdagi tarjima asarlar nashr qilinadi, tabiiyki, ularning salmoqli qismini bolalarga atalgan kitoblar tashkil etadi...

Bolalar yozuvchilari o'z ijodiy yordamida oila boqishga kelsak, biz kitob nashri bilan bog'liq bozorning rivojlanish pallasidamiz...

Turgan gapki, bizning 3 nafar yozuvchidan iborat oilamizning daromadi ham kitoblardagina tashkil topmaydi...

— Siz ijodkorlar oilasida tug'lgansiz. Onangiz Muhabbat Yo'ldoshevanning 400 dan oshiq badiiy filmlari...

Asarni o'g'irishga kirishgan tarjimon muallif yashagan yurtini va zamoni...

Bundan tashqari, men ingliz va rus tili kabi xorijiy tillar borasidagi bilimimga koreys tilini qo'shishga kirishdim...

"Yangi O'zbekiston" muxbiri Muxtasar TOJIMAMATOVA suhbatlashdi.

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi...

"O'zbek adabiyoti dunyo o'qisin" degan shior ostida o'zbek adabiyotini chet ellarga targ'ib qilish maqsadida ish boshlaganimizdan keyin...

O'zbek adabiyotini xorijda targ'ib qilish maqsadida Belgiya ("Atunis Galaxy Poetry" adabiy jurnali), Angliya ("DASH" adabiy jurnali)...

Misrlilik mashhur jurnalist va noshir Ashraf Abul-Yazid bilan bo'lgan suhbatimda u "2016-yildan boshlab 'lpak yo'li' adabiy seriyasida kitoblar nashr etila boshlaganimda..."

Londonda yashab, ijod qiluvchi bangladeshlik shoir va noshir Akm Abdulloh o'zbek mumtoz adabiyotiga mehri haqida...

O'zbekiston har jahdada dunyoga yuz tutayotgan bir paytda o'zbek adabiyotini jahongra olib chiqish dolzarb muammolardan biri bo'lmog'ida...

Asarni o'g'irishga kirishgan tarjimon muallif yashagan yurtini va zamoni, voqealar rivoji kechayotgan davri ham bilish kerak...

Bundan tashqari, men ingliz va rus tili kabi xorijiy tillar borasidagi bilimimga koreys tilini qo'shishga kirishdim...



BUYUKLARIMIZ

Beruniy DAHOSIGA TA'ZIM

Buyuk mutafakkir, qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy fanning deyarli hamma sohalari bilan shug'ullandi...



Pardagul RAZZOQOVA, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Beruniy tumani bo'linmasi rahbari

"Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya" ("Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar") asari Beruniyga juda katta shuhrat keltirdi...

savollar va to'g'ri javoblar", "Farg'oniy "Elementlar"ga tuzatishlar", "Turklar tomonidan ehtiyoqkorlik"...

Prezidentimizning 2022-yil 25-avgustdagi "Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida Beruniy tumanida...

Prezidentimizning 2022-yil 25-avgustdagi "Buyuk mutafakkir va qomusiy olim Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1050-yilligini xalqaro miqyosda keng nishonlash to'g'risida"gi qarori ijrosi doirasida Beruniy tumanida...



BERUNIYDAN ILM-FANNING TURLI SOHALARIGA OIDA O'ZBEKISTON O'ILIGAN YAKI ASARLARIDAN TASHQARI ASTROLOGIYA, ASTROLOGIYA, MATEMATIKA, GEODEZIYA, GEOLOGIYA, MINERALOGIYA, GEOGRAFIYA, ARIFMETIKA, TIBBIYOT, FARMAKOGNOZIYA, TARIX, FILOLOGIYA MASALALARIGA OIDA QATOR RISOLALAR YARATDI VA SANSKRIT TILIDAN ARABCHAGA, ARAB TILIDAN SANSKRIT TILIGA TARJIMLAR QILDI.

u G'arb va Sharq, jumladan, hozirgi zamon hind olimlari tomonidan yuksak baholangan...

Beruniydan ilm-fanning turli sohalariga oid ko'plab asarlar qolgan. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan yirik asarlaridan tashqari astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tibbiyot, farmakognoziya, tarix, filologiya masalalariga oid qator risolalar yaratdi va sanskrit tilidan arabchaga, arab tilidan sanskrit tiliga tarjimalar qiladi...

Shuningdek, yaqinda allomaning 1050-yilligi munosabati bilan u tug'ilib o'sgan hozirgi Beruniy tumanida katta bayram, katta tantana bo'lib o'tdi...

Konferensiya davomida Beruniy asarlari bo'yicha ilmiy izlanishlar qilayotgan olimlar, xodimlarning ma'ruzalari tinglandi.

2023-yil 25-sentabr kuni buyuk bobomizning 1050-yilligi munosabati bilan uning hayoti va ijodi, jahon tamadduni rivojiga qo'shgan ulkan hissasiga bag'ishlangan xalqaro ilmiy konferensiya o'tkazish rejalashtirilgan.